



SAMARQAND VILOYATI URGUT TUMANI HOKIMINING QARORI

Urgut shahar, Navoiy shoh ko'chasi 104-uy.

2022 - yil 2 - noyabr

358-7-105-Q/22

Urgut tuman hokimligi

Samarqand viloyati hokimining 2022-yil 11-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-sentabrdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 522-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 393-7-0-Q/22-sonli qarori to‘g‘risida

Tumanda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand viloyati hokimining 2022-yil 11-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-sentabrdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 522-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 393-7-0-Q/22-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (U.Kamolov, Sh.Aliqulov, A.Eshonqulov, G.Nuriddinova), tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (U.Salomov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i (O.Suyunov), “Urguttumangaz” gaz ta‘minoti filiali (H.Qosimov) manfaatdor korxonalar va tashkilotlar bilan birgalikda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarini quyidagilardan boshlasin:

Tuman aholisini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun barcha hududlarda maqbul narxlarda oziq-ovqat yarmarkalarini tashkil etish;

“Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar”ga kiritilgan oilalarga ko‘mir va suyultirilgan gazni o‘z vaqtida yetkazib berish hamda bolalarni issiq kiyim-kechak bilan ta‘minlash;

olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda hamda tabiiy ofatlar oqibatida yo‘llar talafot ko‘rishi ehtimoli mavjud qishloqlarga ko‘mir va suyultirilgan gazni yetkazib berish hamda kamida 15-20 kunga yetadigan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosarlari (U.Kamolov, Sh.Aliqulov), tuman Moliya

bo‘limi boshlig‘i (U.Rahmatullayev) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-5152-son qarorida ko‘zda tutilgan ko‘p kvartirali uylar atrofidagi umumfoydalanishdagi hojatxonalarni yaxshilash tadbirlarini tegishli mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishini ta‘minlasin.

4. Quyidagilar:

Tumanda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar 1-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi (keyingi o‘rinlarda-tuman komissiyasi) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Quyidagilar tuman komissiyasining asosiy vazifalari etib belgilansin:

Tumandagi aholining murojaatlarini qabul qilish va ularning tezkor ko‘rib chiqilishini ta‘minlash bo‘yicha tunu-kun ishlaydigan aloqa tizimini ishga tushiradi;

mahallalarda xalq bilan muloqot tarzida o‘tkaziladigan uchrashuvlarda mazkur qaror bilan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni talafotsiz o‘tkazish bo‘yicha belgilab berilgan parametrlarning bajarilishi yuzasidan aholiga hisobot berib borish tizimini yo‘lga qo‘yadi;

joylarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni betalafot o‘tkazish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan Viloyat shtabiga kunlik ma‘lumot taqdim qiladi.

ishchi guruhi a‘zolariga qishloq aholi punktlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha belgilangan parametrlar va chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash yuzasidan shaxsiy mas‘uliyat yuklansin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (U.Kamolov, Sh.Aliqulov, A.Eshonqulov), tuman Moliya bo‘limi boshlig‘i (U.Rahmatullayev)), tuman Xalq ta‘limi bo‘limi boshlig‘i (E.Po‘latov), tuman Maktabgacha ta‘lim bo‘limi boshlig‘i (J.Zoitov), tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (D.Tog‘ayev) ijtimoiy soha obyektlarida kuz-qish mavsumi uchun ko‘mir mahsulotlariga talabdan kelib chiqib, zarur mablag‘lar ajratish yuzasidan asoslangan hisob-kitoblarni viloyat Moliya boshqarmasiga taqdim etsin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosari (SH.Aliqulov), Urgut elektr tarmoqlari korxonasi boshlig‘i (A.Hamidov), “Dehqonobod” elektr tarmoqlari korxonasi boshlig‘i (Q.Davronov), “Urguttumangaz ” gaz ta‘minoti filiali boshlig‘i (H.Qosimov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i (O.Suyunov) tegishli boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

elektr va tabiiy gaz qurilmalarini ta‘mirlash, ularning barqaror ishlashini ta‘minlash,

issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga yoqilg'i resurslarini uzluksiz yetkazib berilishini;

aholiga, ijtimoiy soha obyektlariga, boshqa toifadagi iste'molchilarga zarur miqdorlarda energetika resurslarini yetkazib berish bo'yicha muntazam ravishda "mahallabay" tizimida o'rganishlar olib borib, ajratilgan resurslarni yetkazib berilishini ta'minlasin.

8. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (U.Kamolov), tuman Moliya bo'limi boshlig'i (U.Rahmatullayev) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-sentabrdagi 522-sonli qarori 5-ilovasida belgilangan tadbirlarning loyiha-qidiruv ishlari xarajatlarini mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan 2022-yil 3- noyabrga qadar moliyalashtirsin;

kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va uni betalafot o'tkazish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan Viloyat komissiyasiga haftalik ma'lumot taqdim etib borsin;

kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va uni betalafot o'tkazish yuzasidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga hisobot berib borsin hamda har hafta "ochiq muloqot" hamda brifinglar o'tkazib borilishini ta'minlasin.

9. Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov) tegishli korxonalar va tashkilotlar bilan birgalikda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko'p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha parametrlar va chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash yuzasidan javobgarlik yuklansin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosarlari U.Kamolov, Sh.Aliqulov va A.Eshonqulovlar zimmasiga yuklatilsin.

tuman hokimi v.v.b



B.Jabborov

Urgut tuman hokimining
2022 yil 2 noyabrdagi
358-7-105-Q/22-son qaroriga
1-ilova

**Tumanda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko'p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar
kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha**

KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
I. Tashkiliy chora-tadbirlar			
1	Tumanda 2022/2023-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo'yicha hududlarni "qizil", "sariq" va "yashil" hududlarga ajratish. Bunda aholi punktlarini "qizil" hududga kiritishda: elektr energiyasi va tabiiy gaz ta'minotida muammolar mavjud; ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlari moddiy- texnika bazasi va moliyaviy holati "og'ir"; Xalq qabulxonalariga kommunal xizmatlar yuzasidan ko'plab murojaatlar tushgan; olis va borish qiyin bo'lgan hududlar nazarda tutiladi.	bir hafta muddatda	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i (O.Suyunov), Urgut elektr tarmoqlari korxonasi boshlig'i (A.Hamidov), "Dehqonobod" elektr tarmoqlari korxonasi boshlig'i (Q.Davronov), "Urguttumangaz " gaz ta'minoti filiali boshlig'i (H.Qosimov) "Samarqand suv ta'minoti" MCHJ Urgut tumani filiali boshlig'i (A.Mardonov),
2.	Tumandagi aholi yashash punktlarida: ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, shu jumladan kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari hamda ijtimoiy soha obyektlarining issiqlik ta'minoti qozonxonalari, muhandislik-kommunikatsiya obyektlari va jihozlarini ta'mirlash; iste'molchilarga suyultirilgan gazni (ovqat pishirish uchun) barqaror yetkazib berish, shuningdek, chekka hududlarda yashovchi aholini ichimlik suvining muqobil manbalari (jumladan, tashib keltiriladigan suv) bilan ta'minlash bo'yicha mas'ul ijrochilar va bajarish muddatlarini aniq belgilagan holda chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.	2022 yil noyabr	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i (O.Suyunov), Urgut elektr tarmoqlari korxonasi boshlig'i (A.Hamidov), "Dehqonobod" elektr tarmoqlari korxonasi boshlig'i (Q.Davronov), "Urguttumangaz " gaz ta'minoti filiali boshlig'i (H.Qosimov) "Samarqand suv ta'minoti" MCHJ Urgut tumani filiali boshlig'i (A.Mardonov),
3.	Iqtisodiyot tarmoqlarini 2022/2023 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan suyultirilgan gaz va ko'mir yetkazib berish bo'yicha amaliy choralar ko'rish.	2022 yil noyabr va mavsum davomida	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i (O.Suyunov), "Urguttumangaz " gaz ta'minoti filiali boshlig'i (H.Qosimov)

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
4.	Maishiy gazdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan favqulodda hodisalarning oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.	2022 yil noyabr va mavsum davomida	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i (O.Suyunov), "Urguttumangaz" gaz ta'minoti filiali boshlig'i (H.Qosimov)
5.	Ishlab chiqarish va yetkazib berish balansini hisobga olgan holda 2022 yil oktabr oyidan 2023 yil aprel oyiga qadar bo'lgan davr mobaynida ulgurji iste'molchilar va aholiga tabiiy gaz yetkazib berish bo'yicha kelishilgan oylik jadvalni ishlab chiqish va amalga oshirish.	2022 yil noyabr	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i (O.Suyunov), "Urguttumangaz" gaz ta'minoti filiali boshlig'i (H.Qosimov)
II. Yoqilg'i-energetika majmuasini barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar			
6.	Kuz-qish davrida qozonxonalarning barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida soha tashkilotlari tomonidan zarur suyuq va qattiq yoqilg'i zaxirasini yaratish.	2022 yil 5 noyabr	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), Urgut elektr tarmoqlari korxonasi boshlig'i (A.Hamidov), "Dehqonobod" elektr tarmoqlari korxonasi boshlig'i (Q.Davronov), "Urguttumangaz" gaz ta'minoti filiali boshlig'i (H.Qosimov)
7.	Aholi, ijtimoiy soha obyektlari va iqtisodiyot tarmoqlarining ko'mirga bo'lgan talabini to'liq qanoatlantirish, jumladan: aholi ehtiyojlari uchun 37 ming tonna ko'mir jamg'arish; ijtimoiy soha tashkilotlarini 8984 tonna ko'mir mahsulotlari bilan ta'minlash. Bunda import ko'mir mahsulotlari aholi talabidan kelib chiqqan holda yetkazib beriladi	2022 yil 31 dekabr	Tuman hokimining o'rinbosarlari (SH.Aliqulov, A.Eshonqulov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i (O.Suyunov), Tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (U.Salomov)
8.	Tasdiqlangan oylik jadvalga asosan kuz-qish mavsumida iste'molchilarga 5700 tonna, shu jumladan, joriy yil oktabr-dekabr oylarida 3420 tonna suyultirilgan gaz yetkazib berish.	2023 yil 1 yanvar	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i (O.Suyunov), "Urguttumangaz" gaz ta'minoti filiali boshlig'i (H.Qosimov)
9.	Kuz-qish davrida tabiiy gaz ta'minotining tanqisligi kutilayotgan tuman, shahar va aholi punktlariga 2022 yil oktabr - 2023 yil mart oylarida 5700 tonna suyultirilgan gazni oylik jadvalga asosan kafolatlangan tarzda yetkazib berish.	2022 yil noyabr	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i (O.Suyunov), "Urguttumangaz" gaz ta'minoti filiali boshlig'i (H.Qosimov)

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
10.	Olis va borish qiyin bo'lgan hududlarda joylashgan hamda tabiiy ofatlar oqibatida yo'llari talafot ko'rishi ehtimoli mavjud bo'lgan qishloqlarni kuz-qish mavsumi uchun zarur miqdorda yoqilg'i-energetika resurslari bilan ta'minlash.	2023 yil 1 yanvar	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i (O.Suyunov), "Urguttumangaz" gaz ta'minoti filiali boshlig'i (H.Qosimov)
III. Ko'p kvartirali uy-joy fondini tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar			
11.	tumandagi ko'p kvartirali uy-joy fondini ta'mirlash ishlari bo'yicha haqiqiy ehtiyojni hisobga olgan holda joriy yilda moliyaviy ahvoli barqaror bo'lgan ko'p kvartirali uylarni boshqaruvchi tashkilotlar va uy-joy mulkdorlari shirkatlarini qo'llab-quvvatlash uchun tegishli manbalardan talab etiladigan mablag'larning aniq miqdorlarini belgilash.	zaruratga ko'ra	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), tuman Moliya bo'limi boshlii (U.Rahmatullayev), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i (O.Suyunov),
12.	Respublika budjeti va mahalliy budjet mablag'lari, bank kreditlari, ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlari hisob raqamida yig'ilgan majburiy badallar va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ta'mirtalab ko'p kvartirali uylarni ta'mirlash ishlarini sifatli amalga oshirish. Jumladan: 120 metr kvadrat tom qismini va 3 ta kirish yo'lagini ta'mirlash; podyezdlarga 2 ta temir o'rnatish; 8 ta elektr taqsimlovchi shitni ta'mirlash; 4 ta ko'p kvartirali uyning yerto'la qismidagi muhandislik kommunikatsiyalar va 5 tasida uy ichidagi muhandislik tarmoqlarni ta'mirlash; 5 ta ko'p kvartirali uyning fasad qismini ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish.	2022 yil noyabr	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), tuman Moliya bo'limi boshlii (U.Rahmatullayev), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i (O.Suyunov),
13.	Ko'p kvartirali uylar, bino va inshootlarning yong'inga qarshi xavfsizlik texnik meyorlariga mosligini tekshirish, ko'p kvartirali uylardagi dudburonlarni va shamollatish tizimlarini ta'mirlash, ularni izolyatsiya qilish va tozalash ishlarini amalga oshirish.	2022 yil noyabr	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i (X.Qarshiyev)
14.	Markazlashtirilgan issiqlik ta'minotiga ulangan va ichki tizimlari nosoz bo'lgan ko'p kvartirali uylarning nosoz ichki tizimlarini tiklash bo'yicha sektorlar kesimida manzilli dasturni tasdiqlash va amalga oshirish.	2022 yil noyabr	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
15.	Ko'p kvartirali uylarda elektr energiyasidai xavfsiz foydalanish qoidalariga rioya etilishi holatini o'rganish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rish.	2022 yil noyabr	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i (X.Qarshiyev) tuman Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi
IV. Issiqlik va ichimlik suvi ta'minoti obyektlarini tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar			
16.	13 km ichimlik suvi tarmoqlari va 8 ta nasos uskunalari mavsumga tayyorlash.	2022 yil noyabr	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Shukurov), "Samarqand suv ta'minoti" MCHJ tuman filiali (A.Mardonov)
V. Ijtimoiy soha obyektlarini tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar			
17.	288 ta ijtimoiy soha obyektini kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish	2022 yil noyabr	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Eshonqulov), Tuman Xalq ta'limi bo'limi boshlig'i (E.Po'latov), tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi boshlig'i (J.Zoitov), tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i (D.Tog'ayev)
18.	Byudjet tashkilotlarining ko'mirda ishlaydigan qozonxona va isitish tizimlari kuz-qish mavsumiga tayyorgarligini o'rganib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish. Ijtimoiy soha obyektlari uchun qo'shimcha talab etiladigan ko'mir xarajatlarini aniqlash va qoplab berish choralari ko'rish. Bunda ijtimoiy soha obyektlari uchun qo'shimcha talab import ko'mir hisobidan qoplanadi.	2022 yil noyabr	Tuman hokimining o'rinbosarlari (SH.Aliqulov, A.Eshonqulov), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (X.Karshiyev), Tuman hokimining o'rinbosari (A.Eshonqulov), Tuman Xalq ta'limi bo'limi boshlig'i (E.Po'latov), tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi boshlig'i (J.Zoitov), tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i (D.Tog'ayev)
VI. 2022/2023 yillar qish-bahor mavsumi uchun asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini g'amlash bo'yicha chora-tadbirlar			
19.	Moliyaviy ahvoli barqaror, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga bank kreditlari o'z vaqtida ajratilishi va ularning maqsadli ishlatilishini ta'minlash.	doimiy ravishda	Tuman hokimining o'rinbosarlari (U.Kamolov, G.Nuriddinova), tegishli tijorat banklari

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
20.	Muhtoj oilalarni kuz-qish mavsumi uchun zarur oziq-ovqat va dori vositalari zaxiralari bilan ta'minlash.	2022 yil noyabr	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (U.Kamolov), tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (U.Salomov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi (O.Suyunov), tuman tibbiyot birlashmasi bo'limi boshlig'i (D.Tog'ayev)
VII. Chora-tadbirlar bajarilishini nazorat qilish			
21.	Tuman komissiyasi tomonidan 2022/2023 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning holati yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni Viloyat komissiyasiga taqdim etib borish.	har hafta yakuni bilan	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov) tegishli tashkilot, korxonalar bilan birgalikda
22.	Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning holati va natijalarini, shu jumladan ushbu jarayonlarda kamchiliklarga yo'l qo'ygan tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari faoliyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish.	Doimiy ravishda	Tuman hokimining o'rinbosari (SH.Aliqulov), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi, tegishli tashkilot va korxonalar

Urgut tuman hokimining
2022 yil 2 noyabrdagi
358-7-105-Q/22-son qaroriga
2-ilova

**Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko'p kvartirali uy-joy fondini
2022/2023 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni
muvofiglashtirish bo'yicha viloyat komissiyasi**

TARKIBI

SH.Aliqulov	- Tuman hokimining o'rinbosari, Komissiya raisi
O.Suyunov	Tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i o'rinbosari
U.Rahmatullayev	- Tuman Moliya bo'limi boshlig'i
F.Jamolov	- Tuman Qurilish bo'limi boshlig'i
D.Tog'ayev	- Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig'i
E.Po'latov	- Tuman Xalq ta'limi bo'limi boshlig'i
J.Zoitov	- Tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi boshlig'i
SH.Eshmatov	- Tuman Sport bo'limi boshlig'i
J.Bozorov	- Tuman Madaniyat bo'limi boshlig'i
U.Salomov	- Tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i
X.Qarshiyev	- Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i
B.Xamroyev	- Tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'limi boshlig'i
J.Xamrayev	- "Binokor star" MCHJ boshqaruv kompaniyasi raisi
X.Qosimov	- "Urguttumangaz" gaz ta'minoti filiali boshlig'i
A.Hamidov	- Urgut elektr tarmoqlari korxonasi boshlig'i
Q.Davronov	- Dehqonobod elektr tarmoqlari korxonasi boshlig'i
<i>lavozimga ko'ra</i>	- Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i
A.Oblamurodov	- Tuman hokimligi bosh mutaxassisi komissiya kotibi

Izoh: Komissiya tarkibidagi mas'ullar xodimlar boshqa lavozimga o'tkazilganda ularning o'rniga tayinlangan mansabdor shaxslar komissiya tarkibiga kiritiladi.